

GEOGRAFIYA

1. Eratosfenning geografiya fani rivojiga qo'shgan hissasini aniqlang.

- A) **birinchi bo'lib Yerning kattaligini o'lchadi**
 B) *Yerning geografik koordinatalarini aniqladi*
 C) *birinchi bo'lib Yerning aylanish tezligini aniqladi*
 D) *Yerning Quyosh atrofida aylanishini isbotladi*

B) Yerning geografik koordinatalarini, C) Yerning aylanish tezligini, D) Yerning Quyosh atrofida aylanishini isbotlash hamda aniqlash kabi bir qancha ilmiy-amaliy ishlar buyuk geograf olimlar tomonidan milodiy II-XVI asrlar davomida amalga oshirildi. A) Yerning kattaligini birinchi bo'lib eramizdan avvalgi III asrda Eratosfen o'lchagan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya (Amaliy geografiya). Sh.M.Sharipov va boshqalar, 10-sinf, Toshkent-2017-yil, 7-bet.

2. Qaysi javobda yirik masshtabli xarita berilgan?

- A) **1:130000** B) *1:700000* C) *1:250000*
 D) *1:300000*

Masshtabiga ko'ra yirik masshtabli xaritalar 1:10000 dan 1:200000 gacha bo'ladi. Test topshirig'idagi B, C, D javoblarda xarita masshtablari 1:250000 dan katta, ya'ni o'rta masshtabli xaritalar berilgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 8-bet

3. Yer rivojlanishi taraqqiyotining qaysi erasida iqlim mintaqalari, tabiat zonalari shakllangan?

- A) *mezozoy* B) **kaynozoy** C) *arxey*
 D) *paleozoy*

A) mezozoy erasida bahaybat dinozavrlar paydo bo'lgan, C) arxey erasida oddiy bakteriyalar, suvo'tlari paydo bo'lgan, D) paleozoy erasida quruqlikdagi organizmlar, o'simliklar hosil bo'lgan, iqlim mintaqalari, tabiat zonalari kaynozoy erasiga kelib (tarkib topgan) shakllangan.

To'g'ri javob: B

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 13-bet

4. Quyidagi qaysi jarayonlar sutkalik ritmiklikda namoyon bo'ladi?

- A) **fotosintez jarayoni, tun bilan kunning almashinishi**
 B) *atmosferadagi yog'inlar, tun va kun davomiyligining o'zgarishi*
 C) *vulqon faolligining kuchayish jarayoni, teng kunlik bo'lishi*
 D) *mavsumiy shamollarning esishi, sutka qaror topish jarayoni*

Fotosintez jarayoni faqat kunduzi, yorug'da sodir bo'ladi, Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi natijasida tun bilan kunning almashinishi ro'y beradi. Yer o'z o'qi atrofida bir sutkada, yani 24-soatda g'arbdan sharqqa tomon bir maratoba aylanib chiqadi. B, C, D javoblardagi atmosferadagi yog'inlar, kun va tun davomiyligining o'zgarishi, teng kunlik bo'lishi, mavsumiy shamollarning esishi yillik ritmiklikda kuzatiladi, bu jarayonlar Yerning Quyosh atrofida harakati va aylanish o'qining 66,5° qiyaligi bilan bog'liq.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya (Amaliy geografiya). Sh.M.Sharipov va boshqalar, 10-sinf, Toshkent-2017-yil, 29-bet.

5. Olimlarning aniqlashicha, Yer ichiga chuqur tushgan sari harorat har 1500 metrda necha gradus ko'tariladi?

- A) 49,5 °C B) 33,3 °C C) 56,2 °C
D) 62,6 °C

Yer ichiga chuqur tushgan sari har 1000 metrda harorat 33 °C ga ko'tarilishi ma'lum.

Demak, har 1000 metr chuqurlikda harorat 33 °C ga ko'tarilsa, 1500 metrda harorat qancha bo'lishini topish kerak, ya'ni, 1000 m → 33°C

1500 m → x

$$x = 1,5 \text{ km} \times 33 \text{ °C} = 49,5 \text{ °C}$$

1500 metrda harorat 49,5 °C ni tashkil etar ekan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi. P.G'ulomov va boshqalar, 5-sinf, Toshkent-2015-yil, 39-bet

6. 1650-yilda Shimoliy Muz okeanini kim mustaqil okean tariqasida ajratgan?

- A) **B.Varenius** B) *J.Kuk*
C) *A.Chirikov* D) *Jon Kabot*

Bu test topshirig'i abituriyentning fanga oid ma'lumotni eslab qolishi yoki bilishini tekshiradi. Shimoliy Muz okeani 1650-yilda B.Varenius tomonidan mustaqil okeanga ajratilgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 110-bet

7. Hind okeanini birinchi bo'lib A.Tasman nechanchi yillarda g'arbdan sharq tomonga suzib o'tgan?

- A) **1642-1643** B) 1621-1623
C) 1620-1621 D) 1619-1920

Hind okeanini 1642-1643-yillarda A.Tasman g'arbdan sharq tomonga suzib o'tgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 65-bet

8. Shimoliy Amerika materigining subarktika iqlim mintaqasi hududi yozda qaysi havo massalari ta'sirida bo'ladi?

- A) **mo'tadil** B) *ekvatorial*
C) *subekvatorial* D) *arktika*

Shimoliy Amerika materigining subarktika iqlim mintaqasida yozda mo'tadil, qishda arktika havo massalari hukmronlik qiladi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 102-bet

9. Yevropaliklar kelgunga qadar Avstraliyaning mahalliy aholisi bo'lgan aborijenlar nima bilan shug'ullanib kelishgan?

- 1) ovchilik; 2) termachilik; 3) chorvachilik;
4) dehqonchilik; 5) baliqchilik; 6) kemachilik
A) **1, 2** B) 2, 4 C) 3, 5 D) 3, 6

Avstraliyaning mahalliy aholisi aborijenlar yevropaliklar kelgunga qadar faqat

- 1) ovchilik va 2) termachilik bilan hayot kechirishgan. 3) chorvachilik, 4) dehqonchilik, 6) kemachilik bilan shug'ullanishmagan, demak, B, C, D javoblar noto'g'ri berilgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 73-bet

10. Avstraliya materigining tropik o'rmonlarida quyidagilardan qaysi hayvonlar yashaydi?

- A) **xaltali ayiq, lirodum, yexidna**
B) *kenguru, vombatlar, alligatorlar*
C) *emu tuyaqushi, ko'zoynakli ayiq, mazamlar*
D) *kazuar tovug'i, mo'ynali shinshilla, okapi*

Xaltali ayiq, lirodum, yexidna Avstraliya materigining tropik o'rmonlarida yashaydi, B) alligatorlar Shimoliy Amerikaning fasliy sernam o'rmonlar zonasida, C) javobdagi mazamlar Janubiy Amerikaning savannalar zonasida, ko'zoynakli ayiq And tog'larida yashaydi, D) kazuar tovug'i Yangi Gvineya va unga yaqin orollarda, mo'ynali shinshilla And tog'larida yashaydi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 71-bet

11. Pomir-Oloy tizma tog'lari etaklarida qanday tuproqlar hosil bo'lgan?

- A) **bo'z tuproqlar**
- B) *qora tuproqlar*
- C) *qizil tuproqlar*
- D) *sur tusli qo'ng'ir tuproqlar*

O'rta Osiyo o'lkasida cho'l tuproqlari, bo'z tuproqlar, tog'-o'rmon-dasht tuproqlar, baland tog' tuproqlari tarqalgan bo'lib, hududining 1100-1400 m dan 2500-2600 metrgacha balandliklardagi daraxtsiz yerlarda qora tuproqsimon tog'-dasht tuproqlari tarqalgan, qizil tuproqlar O'rta Osiyo o'lkasida uchramaydi, sur tusli qo'ng'ir tuproqlar cho'l zonasida tarqalgan

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 58-bet

12. O'rta Osiyo o'lkasining janubiy chegarasi Hindikush, Safedko'h, Nishopur tog' tizmalari suvayirg'ichi bo'ylab o'tgach qaysi tabiiy geografik obyekt bilan tutashadi?

- A) **Kaspiy dengiz qirg'og'i**
- B) *Emba daryosi qirg'og'i*
- C) *Murg'ob daryosi qirg'og'i*
- D) *Amudaryo qirg'og'i*

Emba daryosi O'rta Osiyo hududidan tashqarida, ya'ni uning shimoli-g'arbiy qismidan, Murg'ob daryosi esa Turkmanistonning janubiy qismidan oqib o'tadi. Amudaryo Pomir tog'laridan oqib tushuvchi Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi va O'rta Osiyo hududining ichki qismidan oqib o'tadi. Hindikush, Safedko'h, Nishopur tog' tizmalari Kaspiy dengizi qirg'oqlari bilan tutashadi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 7-bet

13. O'rta Osiyoning cho'l zonasida, asosan, qanday tuproqlar tarqalgan?

- A) **sur tusli qo'ng'ir, taqir va taqirli, cho'l qumli, o'tloq-alluvial tuproqlar**
- B) *sur tusli qo'ng'ir, taqir va taqirli, sariq, jigarrang, qizil tuproqlar*
- C) *sur tusli qo'ng'ir, taqir va taqirli, sho'rxok, qora tuproqlar*
- D) *sur tusli qo'ng'ir, taqir va taqirli, sho'rxok, qora, kashtan tuproqlar*

Bu test topshirig'ining B javobidagi sariq, qizil tuproqlar Afrika va Janubiy Amerika materigining ekvatorial o'rmonlar zonasida tarkib topgan bo'lib, O'rta Osiyoda bu tuproq turlari uchramaydi, C, D javoblardagi qora tuproqlar ham cho'l zonasida uchramaydi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 57, 58-betlar

14. Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugida tushadigan eng ko'p yog'in miqdori qaysi oylarga to'g'ri keladi?

- A) *dekabr-yanvar* B) *yanvar-fevral*
- C) *fevral-mart* D) **mart-aprel**

Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugida yillik yog'in miqdorini 100 % desak, 36-44 %i qishga, 44-48 %i bahorga to'g'ri kelib, eng ko'p yog'in mart-aprel oylarida yog'adi.

To'g'ri javob: D

Manba: Geografiya. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 149-bet

15. Qashqadaryo tabiiy geografik okrugini sharqdan va janubi-sharqdan qaysi tog'lar Surxondaryo okrugidan ajratib turadi?

- A) **Hisor, Boysun**
 B) *Osmontarash, Beshnov*
 C) *Chaqilkalon, Ko'hitang*
 D) *Chaqchar, Bobotog'*

B javobdagi Osmontarash va Beshnov tog'lari Qashqadaryo okrugi hududida, C javobdagi Chaqilkalon to'g'i Zarafshon tizmasining g'arbiy davomi hisoblanib, Qashqadaryo okrugining shimoli-sharqida, D Bobotog' Surxondaryo okrugining sharqida joylashgan. Qashqadaryo va Surxondaryo okruglarini Hisor va Boysun tog'lari ajratib turadi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 133-bet

16. Qashqadaryo tabiiy geografik okrugining tekislik qismida yanvarning o'rtacha harorati necha gradusni tashkil etadi?

- A) **0+2 °C** B) *1,5+2,5 °C*
 C) *-1 -2,5 °C* D) *0 -2,9 °C*

Okrugning g'arbiy qismi ochiq bo'lgani uchun mo'tadil dengiz va subtropik havo massalari bemalol kirib keladi, shu sababli okrug hududining tekislik qismida yanvarning o'rtacha harorati iliq bo'ladi, ya'ni 0+2 °C ni tashkil etadi. B javobda yanvarning o'rtacha harorati ancha yuqori, C va D javoblarda esa o'rtacha harorat past berilgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 137-bet

17. 2018-yil ma'lumotiga ko'ra respublikamizdagi aholi soni bo'yicha juda yirik shaharlar tarkibiga kiradigan shaharni aniqlang.

- A) **Samarqand** B) *Qarshi* C) *Nukus*
 D) *Chirchiq*

Respublikamiz shaharlari aholisi soniga ko'ra: millioner shaharlar, juda yirik shaharlar, yirik shaharlar va katta shaharlar guruhlariga ajratilgan. Shunga ko'ra A) Samarqand juda yirik shaharlar guruhiga, B) Qarshi, C) Nukus yirik shaharlar guruhiga, D) Chirchiq katta shaharlar guruhiga kiritilgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. P.Musayev va boshqalar, 8-sinf, Toshkent-2019-yil, 24-bet

18. Buxoro viloyatining qaysi hududlarida neft va tabiiy gazning katta zaxiralari ochilgan?

- A) **Qandim, Oqqum, Porsonko'l**
 B) *Qirqquloch, Alan, Janubiy Pomuq*
 C) *Qorovulbozor, Sortosh, Odamtosh*
 D) *Qoraqum, Uvada, Qumbuloq*

Qandim, Oqqum, Porsonko'l neft va tabiiy gaz konlari Buxoro viloyatida joylashgan, B va D javoblardagi Qirqquloch, Alan, Janubiy Pomuq, Qoraqum, Uvada tabiiy gaz konlari Qashqadaryo viloyatida, C) Odamtosh Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmog'ida joylashgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. P.Musayev va boshqalar, 8-sinf, Toshkent-2019-yil, 148-bet

19. Qaysi davlat ikkita okean akvatoriyasiga to'g'ridan to'g'ri chiqish yo'liga ega?

- A) **Kosta-Rika** B) *Surinam*
C) *Yaponiya* D) *Myanma*

Bu test topshirig'ida berilgan javoblardagi B) Surinam Atlantika okeaniga C) Yaponiya Tinch okeaniga, D) Myanma Hind okeaniga, ya'ni bu davlatlar bitta okean akvatoriyasiga chiqish yo'liga, A) Kosta-Rika davlati ikkita okean Tinch va Atlantika okeani akvatoriyalariga chiqish yo'liga ega.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 4, 5-betlar va 9-sinf atlas, 4-bet

20. Quyidagilardan qaysi davlatlar Afrika qit'asidagi neft va tabiiy gaz zaxiralari boy davlatlar sanaladi?

- 1) Nigeriya; 2) JAR; 3) Jazoir, 4) Somali.
A) **1,3** B) *1,4* C) *2,3* D) *2,4*

Afrika materigida neft va tabiiy gaz zaxiralari bilan Nigeriya, Jazoir davlatlari eng yaxshi ta'minlangan, bu davlatlar jahondagi neft va tabiiy gaz eksport qiluvchi mamlakatlar guruhiga kiradi. JAR turli qazilma boyliklar, jumladan toshko'mir, temir, olmos, oltin konlarini qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib tursada neft va tabiiy gaz konlari bilan yaxshi ta'minlanmagan, Somali qishloq xo'jalik mahsulotlarini (banan) eksportga chiqaradi, qazilma boyliklarga boy emas.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 145-bet

21. Janubiy o'rmon mintaqasidagi o'rmonlarga ancha boy bo'lgan davlatlarni belgilang?

- A) **Peru, Kolumbiya**
B) *Kongo Res, Jazoir*
C) *Argentina, Paragvay*
D) *Venesuela, Zimbabve*

Janubiy o'rmon mintaqasidagi Peru va Kolumbiya davlatlari hududi katta maydonli o'rmonlarga boy, Kongo Respublikasi, Jazoir, Zimbabve, Argentina, Paragvay davlatlari jahon miqyosidagi katta maydonli o'rmonlarga boy mamlakatlar tarkibiga kirmaydi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 19-bet va 9-sinf atlas, 8-bet

22. Italiya qaysi oziq-ovqat mahsulotlarini chetga chiqarish bo'yicha jahondagi eng ko'zga ko'ringan eksportyorlardan biri hisoblanadi?

- A) **meva va tomat konservalari, zaytun moyi, pishloq, vino**
B) *vino, sut-go'sht mahsulotlari, baliq konservalari,*
C) *sok va sharbat, palma moyi, kolbasa mahsulotlari*
D) *qora ikra, uzum sharbati, pivo, tamaki mahsulotlari*

Italiya zaytun moyi, pishloq, vino, meva va tomat konservalari mahsulotlarining jahondagi eng ko'zga ko'ringan eksportyor davlatlardan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ko'proq subtropik dehqonchilikka ixtisoslashgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 85-bet

23. Italiyada turizmning yuqori darajada rivojlanishiga qaysi omilning ahamiyati katta?

- A) madaniy merosining boyligi
 B) mashhur ko'llar
 C) mashhur ot sporti
 D) mashhur sharsharalar

Italiya davlatida turizmning keng miqyosda rivojlanishiga tabiiy iqlim sharoiti, tabiatining go'zalligi va albatta, madaniy merosining boyligi xizmat qiladi.

Javoblardagi, B) mashhur ko'llar, C) mashhur ot sporti, D) mashhur sharsharalari bilan dunyoga mashhur emas.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 85-bet

24. Yevropadagi qaysi davlatning urbanizatsiya darajasi 50 %dan pastroq?

- A) Bosniya va Gersegovina
 B) Ukraina C) Slovakiya
 D) Makedoniya

Urbanizatsiya darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha jahon davlatlari uch toifaga bo'linadi, 1) shahar aholisining ulushi 75 % dan yuqori bo'lgan, 2) shahar aholisining urbanizatsiya darajasi 50 % dan 75 % gacha bo'lgan hamda 3) shahar aholisining ulushi 50 % dan past bo'lgan mamlakatlar. B) Ukraina davlatining urbanizatsiya darajasi 65 % dan yuqori, C) Slovakiya davlatining urbanizatsiya darajasi 55 % dan yuqori, D) Makedoniyaning urbanizatsiya 67 % dan yuqori, ya'ni bu davlatlar urbanizatsiya darajasining ko'rsatkichiga ko'ra ikkinchi toifaga kiradi. Bosniya va Gersegovina davlatining urbanizatsiya darajasi 50 % dan past, ya'ni 3-toifaga kiradi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 71-bet

25. Quyidagilardan AQSh davlatining eng yirik shahar aglomeratsiyalarini toping.

- 1) Nyu-York; 2) Monterey;
 3) San-Fransisko; 4) Yangi Orlean;
 5) Chikago

A) 1,5 B) 1,4 C) 2, 3 D) 2,5

AQShning Nyu-York, Chikago, Los-Anjeles shaharlari jahondagi eng yirik aglomeratsiyalar hisoblanadi. 2) Monterey, 4) Yangi Orlean eng yirik aglomeratsiyalar tarkibiga kirmaydi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 38-bet

26. Ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra federativ davlatni belgilang.

- A) Kanada B) Urugvay C) Mozambik
 D) Shvetsiya

2018-yil holatiga ko'ra jahonda federativ davlatlar soni 28 tani tashkil etgan.

B) Urugvay, C) Mozambik, D) Shvetsiya davlatlari ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra federativ mamlakatlar tarkibiga kirmaydi. A) Kanada ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra federativ davlat hisoblanadi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. A.Qayumov va boshqalar, 9-sinf, Toshkent-2019-yil, 11-bet

27. Boshqaruv shakli monarxiya bo'lgan davlatlarni aniqlang.

- A) Ispaniya, Norvegiya
 B) Shveysariya, Malta
 C) Avstriya, Gretsiya
 D) Niderlandiya, San-Marino

Boshqaruv shakliga ko'ra, B) Shveysariya, Malta, C) Avstriya, Gretsiya, D) San-Marino davlatlari prezidentlik va parlamentar respublikalar hisoblanadi, A) Ispaniya, Norvegiya boshqaruv shakliga ko'ra konstitutsion monarxiya davlatlari hisoblanadi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya (Amaliy geografiya). Sh.M.Sharipov va boshqalar, 10-sinf, Toshkent-2017-yil, 94 va 97-betlar.

28. O'zbekistonda qaysi tarmoq suvni ifloslovchi manbalarning 4 foizini tashkil qiladi?

- A) **kommunal xo'jalik** B) sanoat
C) qishloq xo'jaligi
D) sug'oriladigan yerlar


O'zbekistonda suvni eng ko'p ifloslovchi tarmoqlarga sanoat, sug'oriladigan yerlar kiradi. Shundan sanoat tarmog'i hissasiga 18 %, sug'oriladigan yerlar hissasiga 78 %i to'g'ri keladi, sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligi tarkibiga kiradi, Demak, 4 %i kommunal xo'jalik hissasiga to'g'ri keladi.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. P.G'ulomov va boshqalar, 7-sinf, Toshkent-2017-yil, 133-bet

29. Ushbu diagrammada 2017-yil

O'zbekistonning sanoat tarmoqlaridagi mahsulot ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat va kimyo sanoatlarining salmog'i qaysi raqamlar bilan belgilangan?



- A) **1 va 4** B) 2 va 5 C) 4 va 6
D) 3 va 5


2017-yil O'zbekiston sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkichlari javoblardagi 2) yengil sanoat, 3) mashinasozlik va metallni qayta ishlash, 5) yoqilg'i sanoati, 6) elektr energiya tarmog'i hissalariga to'g'ri kelgan. Demak, B, C, D javoblar xato berilgan.

1) oziq-ovqat va 4) kimyo sanoati hissasiga to'g'ri kelgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. P.Musayev va boshqalar, 8-sinf, Toshkent-2019-yil, 31-bet

30. Shimoliy Amerika materigining yozuvsiz xaritasida 1 va 3 raqamlar bilan qaysi yarimorollar ko'rsatilgan?



- A) **Florida ya.o va Labrador ya.o**
B) Yukatan ya.o va Labrador ya.o
C) Yangi Shotlandiya ya.o va Kaliforniya ya.o
D) Yukatan ya.o va Florida ya.o

Yozuvsiz xaritada 2) raqami bilan Kaliforniya yarimoroli ko'rsatilgan. Yangi Shotlandiya yarimoroli Labrador yarimorolidan janubi-sharqda, Yukatan yarimoroli esa Florida yarimorolidan janubda joylashgan bo'lib, bu ikki yarimorol Meksika qo'ltig'i orqali ajralib turadi. Demak, 1 raqami bilan Florida yarimoroli, 3 raqami bilan Labrador yarimoroli ko'rsatilgan.

To'g'ri javob: A

Manba: Geografiya. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. A.Soatov va boshqalar, 6-sinf, Toshkent-2017-yil, 99, 105-betlar va 6-sinf atlas, 24-bet